XALQ DEPUTATLARI KATTAQO‘RG‘ON TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 18-avgust VII-13-97-7-96-K/25 Kattaqo‘rg‘on tumani

Tuman mahalliy budjetining qo‘shimcha manbalaridan foydalanish to‘g‘risida

“2025-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2022-yil 8-apreldagi KQ-331-IV-sonli Qarori, 2024-yil 29-noyabrdagi KQ-5-V-sonli Qarori, Budjet Kodeksining 126-moddasi hamda tuman mahalliy budjetining qo‘shimcha manbalari hisobidan amalga oshiriladigan tadbirlarni umumlashtiruvchi komissiyasi yig‘ilish qaroriga asosan va “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6- va 24-moddalariga muvofiq xalq deputatlari Kattaqo‘rg‘on tuman Kengashining yettinchi chaqiriq, o‘n uchinchi sessiyasi

QAROR QILADI:

1. Tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (M.Obbozov)ning mahalliy budjetining 2025-yil 2-chorak daromadlar rejasini orttirib bajarilgan qismidan tushgan mablag‘laridan foydalanish to‘g‘risidagi takliflari hamda 2025-yil 26-iyuldagi tuman mahalliy budjetining qo‘shimcha manbalari hisobidan amalga oshiriladigan tadbirlarni umumlashtiruvchi komissiyasi yig‘ilishining 6-sonli bayoni qarori hamda deputatlarning taklif va fikr-mulohazalari ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman mahalliy budjetining 2025 yil II-chorak daromadlar rejasini orttirib bajarilgan qismi hisobidan **1 704 021,0** (Bir mlrd yetti yuz to‘rt mln yigirma bir ming) **ming so‘m mablag‘** ilovaga asosan yo‘naltirilsin.

3. Tuman mahalliy budjetining qo‘shimcha manbalari mablag‘lari hisobidan tuman tashkilotlari (Rahbarlari)ga ajratilgan mablag‘lardan maqsadli foydalanish hamda tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (M.Obbozov)ga ajratilgan mablag‘larni ishlatilishini nazorat qilish vazifasi yuklatilsin.

4. Tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (M.Obbozov)ga tuman mahalliy budjetiga tegishli o‘zgartirishlar kiritish, shuningdek tuman G‘aznachilik bo‘linmasi (N.Vasiyev)ga mablag‘larni amaldagi qonunchilikda belgilangan tartibda budjet mablag‘larining to‘g‘ri va maqsadli xarajatga chiqarilishini ta’minlash bo‘yicha shaxsiy javobgarlik mas’uliyati yuklatilsin.

5. Mazkur Qaror ijrosi xalq deputatlari tuman Kengashining mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy

komissiyasi (A.Xudayberdiyev) va tuman hokimining birinchi o‘rinbosari M.Zavqiyev zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi

NASRIDDINOV
JAMSHID
TULKINOVICH

Xalq deputatlari Kattaqo‘rg‘on tumani Kengashining
2025-yil 18-avgustdagi

1-ilova

Tuman budjetining 2025 yil qo‘shimcha manbalari hisobidan amalga oshiriladigan tadbirlar uchun yo‘naltiriladigan mablag‘lar miqdori

№	Mablag‘ ajratish manbaasi	Mablag‘ ajratiladigan tashkilotlar va hududlar nomi	Amalga oshiriladigan tadbirlar nomi	Ajratiladigan mablag‘ miqdori (ming so‘m)
1	II-chorak daromadlar rejasini orttirib bajarilgan qismidan	Tuman hokimligi	Jamoatchilik fikri asosida shakllangan tadbirlarni moliyalashtirish uchun “Fuqarolar tashabbusi” jamg‘armasiga	778 200,0
2		Tuman maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limiga	Tumandagi 7 ta (44-69:1-69:2-73-75-84-88) umumta’lim maktab filiallarida 4 achkolik tashqi yangi xojatxonalar qurishda qurilish mollarini sotib olish uchun	324 610,0
3		Tuman maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limiga	Tumandagi 8 ta (5-11-13-24-74-76-82-108) umumta’lim maktablarning tashqi xojatxonalarini ta’mirlash ishlarini olib borishda qurilish mollarini sotib olish uchun	211 754,0
4		Tuman maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limiga	Tumandagi 3 ta (14-55-66) DMTTlarni yaroqsiz xojatxonalarini buzib yangisini qurishda zarur bo‘lgan qurilish materyallari sotib olish uchun	163 457,0
5		Tuman tibbiyot birlashmasi	TTBdagi ta’mirtalab hojatxonalarni ta’mirlash va ichki hojatxonalarni tashkil etish uchun	226 000,0
		Jami:	**Bir mlrd yetti yuz to‘rt mln yigirma bir ming**	**1 704 021,0**